O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK 338.48

JAVLIYEVA GULASAL BAHRIDDIN QIZI

JAHONDA ZIYORAT TURIZM RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

71010401 – «Turizm (ziyorat turizm) » mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: prof. A. Eshtayev

Toshkent – 2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Turizm va mehmonxona biznesi" kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar _____ **prof. A. Eshtayev**

Kafedra mudiri _____ **prof. A.Eshtayev**

Kechki ta'lim va magistratura

fakulteti dekani _____ **i.f.d., prof. J.I.Karimqulov**

Men, Javliyeva Gulasal Bahriddin qizi ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

_____ "___" _____ 2025 yil

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI DASTLABKI HIMOYASI
BAYONNOMASI

2025 yil "11" aprel

Magistratura 2-kurs "Turizm (ziyorat turizmi)" mutaxassisligi
MTZa-guruhi talabasi Davliyeva Gulnisol ning
"Jahonda ziyorat turizmi obektlarining rivojlanish xususiyatlari"
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi natijalariga ko'ra quyidagi kamchiliklar qayd etildi:

Dissertatsiya to'liq shakillantirilmagan. Ilova qismlar kam. III-bob to'liq tugatilmagan. Texnik va imloviy xatoliklar ko'p.

Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan xulosa (KIMKda himoyaga **tavsiya etiladi/tavsiya etilmaydi**) tavsiya etiladi

Komissiya raisi: Eshtayev. A

Komissiya a'zolari: Abduvahidov. A
Aliyeva. N
Abdoba D
Norchayev A.

Izoh: Dastlabki himoyaga kirishda talabaning magistrlik dissertatsiyasi, plagiatga tekshirilganligi, ilmiy rahbari xulosasi, ichki taqrizchilarning taqrizlari, amaliyot kundaligi, tavsifnoma, kamida 2 ta ilmiy maqola(tezis)si nusxalari bo'lishi talab etiladi

ANNOTATSIYA

Mazkur dissertatsiya ishida jahon miqyosida ziyorat turizmini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, asosiy yo‘nalishlari va global tendensiyalari chuqur o‘rganilgan. Tadqiqotda ziyorat turizmi sohasining nazariy asoslari yoritilib, uning boshqa turizm turlaridan farqli jihatlari, iqtisodiy va madaniy ahamiyati tahlil qilingan. Ishda Saudiya Arabistoni, Eron, Hindiston, Isroil kabi davlatlar misolida yirik ziyorat maskanlarining rivojlanish holati, infratuzilma ta'minoti, xizmatlar sifati va ziyoratchilar oqimi statistik jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, ziyorat turizmi global reytinglarda qanday baholanayotgani va bu reytinglar mamlakatlar turizm siyosatiga qanday ta’sir qilayotgani ko‘rsatib berilgan.bTadqiqot natijasida ziyorat turizmini barqaror rivojlantirishga oid muhim xulosalar chiqarilgan hamda O‘zbekiston uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan ilg‘or xorijiy tajribalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Dissertatsiya natijalari ziyorat turizmi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan olimlar, amaliyotchi mutaxassislar hamda turizm siyosatini ishlab chiquvchi tashkilotlar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

ANNOTATION

This dissertation thoroughly examines the unique characteristics, main directions, and global trends in the development of pilgrimage tourism worldwide. The study highlights the theoretical foundations of pilgrimage tourism, analyzing its distinguishing features compared to other types of tourism, as well as its economic and cultural significance. The research analyzes the development status, infrastructure provision, service quality, and flow of pilgrims to major pilgrimage sites in countries such as Saudi Arabia, Iran, India, and Israel. Furthermore, it explores how pilgrimage tourism is evaluated in global rankings and how these rankings influence national tourism policies. As a result of the study, important conclusions have been drawn regarding the sustainable development of pilgrimage tourism, and practical recommendations have been developed based on advanced international experiences that could be beneficial for Uzbekistan. The findings of

the dissertation can be useful for researchers in the field of pilgrimage tourism, practitioners, and organizations involved in shaping tourism policy.

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB	**Ziyorat turizmining nazariy asoslari**	
1.1	Ziyorat turizmi tushunchasi va uning turizm rivojlanishidagi o`rni.....	9
1.2	Jahon ziyorat turizm obyekti sifatida Makka, Madina va ularning rivojlanish xususiyatlari	14
1.3	Ziyorat turizmni tashkil qilishda xorij tajribasidan foydalanish	19
	I bob bo'yicha xulosa.....	24
II BOB	**Turizm rivojlanishida ziyorat turizmidan samarali foydalanishning tahlili**	
2.1	Ziyorat turizmi bo`yicha hududlarni statistik tahlil qilish.....	26
2.2	Ziyorat turizmining iqtisodiy samaradorligini baholash.....	31
	II bob bo'yicha xulosa.....	37
III BOB	**O`zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda turizm obyektlardan foydalanishning istiqbolli yo`llari**	
3.1	O`zbekistonda ziyorat turizmining mavjud holati va rivojlanish suratlari.....	40
3.2	Ziyorat turizmining rivojlanishida raqamli texnologiyalar va virtual sayohatlar.....	57
3.3	Mamlakatimizda ziyorat turizmi dasturlari, muammolar va ularni hal etish yo'llari.....	61
	III bob bo'yicha xulosa.....	69
	XULOSA.....	72
	ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	73

Kirish

Disertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Hozirgi davrda turizm sanoati global iqtisodiyotning yetakchi va tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylangan bo‘lib, uning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan ziyorat turizmi jahon miqyosida tobora keng ko‘lam kasb etmoqda. Ziyorat turizmi insoniyatning diniy e'tiqodlari, ma'naviy qadriyatlari va tarixiy merosi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u nafaqat madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashga, balki davlatlar iqtisodiyotiga ham sezilarli daromad keltiruvchi soha sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Dunyodagi ko‘plab davlatlar — jumladan, Saudiya Arabistoni, Hindiston, Eron, Isroil singari mamlakatlar — ziyorat turizmini rivojlantirish orqali katta daromad manbaiga ega bo‘lib, bu yo‘nalishda keng ko‘lamli infratuzilmaviy va tashkiliy islohotlarni amalga oshirmoqda. Saudiya Arabistoni har yili Haj va Umra ziyoratlari orqali millionlab ziyoratchilarni qabul qilib, nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka ham erishmoqda. So‘nggi yillarda Saudiya Arabistoni ziyorat turizmini davlat darajasida rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. 2024-yil yakuniga ko`ra, mamlakat Haj va Umra ziyoratlari hisobidan 12 milliard AQSH dollaridan ortiq daromad olgan. Mamlakat "Saudi Vision 2030" dasturi doirasida ziyoratchilar sonini oshirishni maqsad qilgan bo`lib, 2030-yilga kelib yiliga 30 milliondan ortiq ziyoratchini qabul qilish rejalashtirilgan.

Bu borada Makka va Madina shaharlarida zamonaviy mehmonxonalar, xalqaro aeroportlar, logistik markazlar, sog‘liqni saqlash punktlari, tez yordam tizimlari va elektron xizmatlar jadal rivojlantirilmoqda. Ziyorat turizmi orqali nafaqat turistik xizmatlar, balki avtotransport, savdo, oziq-ovqat, qurilish va boshqa sohalarda ham minglab ish o‘rinlari yaratilmoqda.

Shu bilan birga, Saudiya Arabistoni Umra ziyoratini butun yil davomida tashkil etish orqali mavsumiy cheklovlarni bartaraf etib, turizm daromadlarini barqaror holga keltirmoqda. Bu tajriba boshqa davlatlar, jumladan, O`zbekiston uchun ham foydali bo`lishi mumkin.